

**XOLIS VA SHAMSIDDIN O'ZGANDIYNING BIBI FOTIMA VAFOTIGA
BAG'ISHLANGAN QISSALAR QIYOSIY TAHLILI**

Баратов Гиёсиддин

TDSHU 2- kurs magistranti

Annotatsiya. *O'zbek adabiyoti tarixidan turli qissalar bizgacha yetib kelgan. Xususan, XVIII asrdan keying davrlarda qissanavislik o'z rivojining yangi bosqichiga ko'tarildi. Turli diniy-didaktik mavzularda asarlar yaratildi. Shu turkum qissalardan biri Bibi Fotima vafotnomasiga bag'shlangan bo'lib, bu mavzuda har ikki muallifning qissalari mavjud. Qissalar ayni mavzuda bo'lishi bilan birga bayon uslubida, syujetida ayrim o'zgachaliklar ham yo'q emas. Ushbu maqolada mana shu masalalar yoritilgan.*

Tayanch so'zlar. *Qissachilik, she'riy shakl, masnaviy, muxammas, motiv*

Qissalar poetikasida dastlab ularga tanlangan she'riy shakllar hususida to'xtalsak. Ma'lumki klassik adabiyotda yirik hajmli asarlar uchun masnaviy shakli tanlanadi: masnaviy – ikkita o'zaro qofiyalangan misralardan tarkib topuvchi band turi, shunday bandlardan tarkib topuvchi she'riy asar; she'r shakli. Misralarning o'zaro qofiyalanishi (aa, bb, cc, dd kabi) masnaviyni voqealar bayoni uchun juda qulay shaklga aylantiradi. Shuning uchun Sharq adabiyotida voqeband she'rlar va dostonlar, asosan masnaviy shaklida yaratilgan⁴¹.

Xolis qissasida muallif tomonidan bayon qilingan qismi masnaviy yo'li bilan yaratilgan:

Kel ey roviy so'zingni durafshon qil

Vafoti Fotimani sen ayon qil

Rasul oxir damida bo'ldi ranjur

Sahoba bildilar Oxir bo'lubtur

Biroq O'zgandiyning qissasida biroz boshqacha shakl tanlangan. Bayonning dastlabki qismi to'rtlik shaklida. Qofiyalanishi jihatidan a-a-a-a, b-a-v-a, c-a-d-a shaklida keladi:

Kunlarda bir kun Fotima farzand nur Mustafo

Uz vafotidin xabar topti bafarmoni Xudo

Marhabo kel marhabo dedi o'shal Faxrinniso

Joni birlan ul qazog'a berdi taslim rizo

⁴¹ Quronov D. va boshqalar. Adabiyotshunoslik lug'ati. – Toshkent: Akademnashr, 2010. – B. 163.

*Bosh ko'zin yuvdi siladi anda filhol o'lturub
To safo birlan ravon bo'lg'ay o'shal koni safo
Ushbu holat da kirib keldi eshikdin Fotima
Nogohon ul mehribon chiqti Ali Murtazo*

Bundan dastlabki bayon murabba' shaklida ekanligi ma'lum bo'ladi: Murabba' – musammat turlaridan biri, to'rt misrali bandlardan tarkib topuvchi she'r shakli; to'rt misrali band. Murabba' she'r shaklida band misralari o'zaro qofiylanadi (a-a-a-a), keyingi bandlarning dastlabki uch misrasi o'zaro, to'rtinchi misrasi esa birinchi band bilan qofiylanadi. Shuningdek, she'riyatimizda murabba'ning sal o'zgacharoq qofiylanuvchi shakllari ko'p uchraydi⁴².

Qissalarning har ikkisida ham muxammas janriga oid she'r keltiriladi. Xususan, O'zgandiy versiyasida “Hazrat bibi Fotima vafotlaridan hazrat Aliga hayr berganlari” sarlavhasi ostida bir muxammas keltiriladi;

*Ketarman shohmardon emdi siz yaxshi qoling derman
Vasiyat bir necha aylay qulog'ing ga oling derman
Qoshimda ulturub lahza quloq anga soling derman
Gah mendin so'ng nechuk kechgay seni munda holing derman
Ne yerda sarg'orib qolg'ay iki o'g'lonlarning derman*

*Bugun kokillarin yuvdumke mendin so'ng yuvg'on kimdur
Aytarman men bolam har dam ke mendin so'ng degan kimdur
O'pib peshonasidin boshlarini silagan kimdur
Bularni bu shikasta xotirini ulagan kimdur
Ko'ngil olur kishim yo'qtur otasi sannnn oling derman*

Ahamiyatli jixati ushbu muxammasning so'ngida ham Xolis taxallusi keltiriladi:

*Ayo Xolis vasiyatni Aliga Fotima aydi
So'zini muxtasar qildi o'shal dam og'ridi yotti
Kanizi dargahi xaliq ajalni sharbatin totti
Jahondin yuz ugurdi ul kuni ham dunyodin o'tti
Musulmonlar o'qub eshitib bu so'zlarni biling derman*

Ushbu muxammas Xolisning qissasida uchramaydi. Lekin “Mahramim” radifli muxammas har ikki versiyada bir xil keladi. O'zgandiy versiyasida keyingi voqealar bayoni masnaviyda davom etadi:

*Bu so'zlarni Ali eshitib oldi
Yuragiga bir o'tni soldi*

⁴² Quronov D. va boshqalar. Adabiyotshunoslik lug'ati. – Toshkent: Akademnashr, 2010. – B. 191.

Dedi qilma muningdek niyat bad

Yuragi yorilur o'g'lunni behad

O'zgandiy versiyasida "Hazrat bibi Fotima roziyallohu anhu Hazrat Aliga vasiyat qilg'anu bu turur" hamda "Kanizak dargoh imomlarga vasiyat qilg'anlari bu turur" sarlavhalari ostida berilgan vasiyatlar ham besh qatorlik bandli she'r – muxammas shaklida berilgan. Shuningdek, "Shahzodalar onalarini ravzaga olib borurda aytib yig'lag'anlari bu turur" sarlavhasi ostida berilgan bayon ham beshlik shaklida:

Men nechuk yig'larmen ey mahrami jonim onam

To bu vaqtga tarbiyat qilg'on nigormiyonim onam

Ayrilib sizdin ichimda qoldi armonim onam

Ko'zlarimdan o'qqusi qora qonim onam

Ey bobom ni yodgori guvhari konim onam

Xolisning versiyasida muallif so'zi masnaviyda bayon qilingan bo'lsa-da, qissa qahramonlarining so'zlari uchun asosan muxammas shakli tanlangan. Qissa avvalida otasining vafotidan xabar topgan Bibi Fotimaning aytgan so'zlari ham muxammas shaklida keladi:

Muhammasi kanzak dargoh

Ey qizing aylansun jamolingdin yuzi shamsh-u qamar

Haq kalomida ko'zingni vasfi mazag'olbasar

Oy nurini ko'rmagan qizing bo'lur holi batar

Qayda bor jonim otam yer yuzida sizdek padar

Qaysi yerga boradursiz aytingiz menga xabar (XQ).

Qissalarning poetik xususiyatlaridan biri – ularning qofiya tizimidir. O'zgandiy versiyasidagi qissaning dastlabki bayoni to'rtlik shaklida ekanligi bayon qilingan edi. She'r shakliga ko'ra qofiya tizimi ham shakllantiriladi. Murabba' tipidagi she'rlarda qofiyadoshlik bandlar so'ngiga qadar davom etadi. Qofiyaning asosiy unsuri – raviydir. Raviy – qofiyalanib kelayotgan so'z o'zagi yoki negizi oxirida aynan takrorlarnib keluvchi cho'ziq unli yoki undosh. Mumtoz poetikada qofiyalanayotgan so'zlarda raviyning aynan takrorlanishi shart hisoblangan⁴³. Qissada dastlab cho'ziq o'tovushi raviy vazifasini o'tagan. Mumtoz she'riyatda cho'ziq unlilarning raviy harf bo'la olishi ta'kidlanadi.

Kunlarda bir kun Fotima farzand nur Mustafo

Uz vafotidin xabar topti bafarmoni Xudo

⁴³ Qur'onov D. va boshqalar. Adabiyotshunoslik lug'ati. – Toshkent: Akademnashr, 2010. – B. 239.

*Marhabo kel marhabo dedi o'shal Faxrinniso
Joni birlan ul qazog'a berdi taslim rizo*

*Bosh ko'zin yuvdi siladi anda filhol o'lturub
To safo⁴⁴ birlan ravon bo'lg'ay o'shal koni safo
Ushbu holat da kirib keldi eshikdin Fotima
Nogohon ul mehribon chiqti Ali Murtazo*

*Yonlarida ulturub so'z qotti hargez so'zlamas
Boqmadi ul dam Ali sarig'a ul xayrunniso
O'rnidin turdi dedikim ul Hasan sari boqib
Ey ko'zumning nuri ko'nglum mevasi kel kel mango*

Alisher Navoiy o'zining "Muhokamat ul-lug'atayn" risolasida cho'ziq o harfi raviy harf bo'la olishini, so'zni oxirida kelib a talaffuz qilinuvchi hoyyi havvaz harfi ham bu tovushga ohangdosh bo'la olishi ta'kidlanadi⁴⁵.

Ajratilgan parchada *Mustafo, Xudo, niso, rizo, niso* so'zlari qofiyalangan. Oxirgi misradagi qofiya *manga* so'zidagi so'nggi unli tovush qofiya talabi bilan cho'ziq unliga aylangan.

*Ey qizing aylansun jamolingdin yuzi shamsh-u qamar
Haq kalomida ko'zingni vasfi mazag'olbasar
Oy nurini ko'rmagan qizing bo'lur holi batar
Qayda bor jonim otam yer yuzida sizdek padar
Qaysi yerga boradursiz aytingiz menga xabar*

Ikkala qissada muxammaslardan tashqarida qolgan o'rinlarda masnaviy shaklida kelib, qolfiyalar ikki misra doirasida amal qilgan. Xalq og'zaki ijodiga xos qofiya naumanlari ham uchraydi:

*Ani ma'ni aytmagil xub yig'lab olsun
Firoq o'tig'a bag'rin dog'lab olsun (X)*

Yoki:

*O'shal kun Fotima dunyodin o'tti
Zamin osmonlar larza tutti (O')*

O'zgandiyning versiyasida Bibi Fotima xususidagi bayonda vasf uslubi ustun turadi. Vasf – biror narsa, hodisa yoki shaxsni maqtash, madh etish, chiroyli o'xshatishlar, majoziy iborlar bilan ta'rif-u tavsif berish⁴⁶.

⁴⁴ Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. III том. – Тошкент: Фан, 1984. – Б. 553

⁴⁵ Алишер Навоий. Муҳокамат ул-луғатайн. МАТ. Т. 16. – Тошкент: Фан, 2000. – Б. 144.

⁴⁶ Quronov D. va boshqalar. Adabiyotshunoslik lug'ati. – Toshkent: Akademyashr, 2010. – B. 78.

Qissada Bibi Fotimaga nisbatan *faxrunniso* va *hayrunniso* sifatlashlari juda ko'p o'rinda keladi:

Xolis versiyasidagi qissada istiora badiiy tasvir vositasi orqali Bibi Fotima, Ali r.a, Muhammad s.a.v.lar nazarda turilgan. Xususan quyidagi misolda Bibi Fotima ismini siymbar so'zi bilan almashtiriladi:

Siymbar bildilar ushbu ramuzni

Qarottilar Ali sorig'a ko'zni (X)

Siymbarning ma'nosi Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lug'atida *kumush badan, oq badan; go'zal, ma'shuqa* mazmunlarida izohlangan⁴⁷.

Xulosa qilib aytganda, har ikki versiya o'ziga xos bayon uslubiga ega. Tanlangan she'riy shakllarda ham tafovut mavjud. Badiiy bo'yodorlik qissalar matnidagi muxammaslarda yaqqol ko'zga tashlanadi. O'zgandiy versiyasidagi ayrim muxammaslar Xolisga tegishli ekanligi ma'lum bo'ladi. Bundan Xolis versiyasi avvalroq yaratilganidan hamda she'riy janrlarda Xolis sarmahsul ijod qilganligini bilish mumkin.

⁴⁷ Алишер Навоий асарлари тилининг изоҳли луғати. Тўрт томлик. Т.3. – Тошкент: Фан, 1984. – Б. 75.